



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

TUKLI ERVA O'SIMLIGI EKSTRAKTI TARKIBIDAGI SUVDA ERUVCHAN VITAMINLAR MIQDORINI YUSSX USULIDA ANIQLASH

Z.X.Abduraimov¹, M.A.Mo'minova²

¹Andijon davlat universiteti kimyo kafedrası dotsent v.b., kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Andijon davlat universiteti kimyo ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Uzbekistan

abduraimovzuxritdin@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tukli erva (*aerva lanata* Juss) pol-pola o'simligining o'ziga xos dorivorlik xususiyatlari va O'zbekiston hududida madaniylashtirilganligi, bu o'simlikda turli guruhga mansub biologik faol moddalar mavjudligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'simlikning suvli ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlanib ular tahlili haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: alkaloidlar, pektinlar, xolesterin, fenollar, diuretik, arterial gipertenziya, aterogen, niatsin, vitamin PP.

Аннотация: В статье приведены сведения об уникальных лечебных свойствах травянистого растения *Aerva lanata* Juss, его возделывании в Узбекистане, наличии в этом растении биологически активных веществ, относящихся к различным группам. Методом высокоэффективной жидкостной хроматографии определено содержание водорастворимых витаминов в водном экстракте растения и описан их анализ.

Ключевые слова: алкалоиды, пектины, холестерин, фенолы, диуретики, артериальная гипертензия, атерогенные, ниацин, витамин PP.

Abstract: The article presents information about the unique medicinal properties of the hairy erva (*Aerva lanata* Juss) pol-pola plant and its cultivation in Uzbekistan, as well as the presence of biologically active substances belonging to various groups in this plant. The content of water-soluble vitamins in the aqueous extract of the plant was determined by high-performance liquid chromatography and their analysis was described.

Keywords: alkaloids, pectins, cholesterol, phenols, diuretic, arterial hypertension, atherogenic, niacin, vitamin PP.

Language: Uzbek

Citation: Abduraimov, Z., & Muminova, M. (2025). DETERMINATION OF WATER-SOLUBLE VITAMINS IN HAIRY GARDEN EXTRACT BY THE YUSSX METHOD. *Universal International Scientific Journal*, 2(4), 266–272. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1736>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15351016>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda dorivor va ziravor o‘simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 4670-sonli qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Shu bilan birga qarorda ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshirilgan dorivor o‘simliklarga doir ilmiy tadqiqotlar, yangi innovatsion ishlanmalar bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, ularning tizimli ravishda yangilab

borilishini taminlash kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan[1].

Dorivor o‘simliklar sohasi respublikada endi rivojlanayotgan, misli ko‘rinmas katta tabiiy zahirga ega istiqbolli sohalardan biri bo‘lib, ushbu sohani yana-da rivojlantirish, ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash, sohani yagona bir tizimga birlashishi zamon talabi hisoblanadi. Dorivor o‘simliklar (lat. *Plantae medicinalis*) – bu xalq tabobatida, tibbiyotda yoki veterinariya amaliyotida, profilaktika va davolash maqsadida ishlatiladigan o‘simliklarga aytiladi. Xalqaro tabiatni qo‘riqlash ittifoqi (IUCN) ma‘lumotiga ko‘ra, tibbiyotda 21 mingga yaqin dorivor o‘simliklar ishlatiladi [2]. Ana shunday dorivorlik hususiyati yuqori bo‘lgan o‘simliklardan biri “Tukli erva” dir.

Tukli erva Afrika, Hidiston, Janubiy Osiyo, Fillipin va Yangi Gveneya kabi tropik va subtropik mamlakatlarda tabiiy ko'p yillik o'simlik holida o'sadi. O'zbekistonda bu o'simlik bir yillik dorivor o'simlik sifatida o'stiriladigan o'simlik hisoblanib quruq yalangik tuproqlarda, cho'l tekisliklarida, qumli tuproqlarda uchraydi[3].

Tukli erva o'simligi dorivor o'simlik bo'lib, tarkibida flavonoidlardan (rutin), efir moyi, pektinlar, taninlar, alkaloidlar, aminokislotalar, vitaminlar, mikro va makroelementlar uchraydi. Tukli erva ekstrakti tarkibidagi alkaloidlarning tuzilishi turli xil spektroskopik usullar yordamida o'rganilib tahlil qilingan[4].

Vitaminlar tirik organizmlarning hayot faoliyati uchun zarur biologik moddalardir. Shuningdek o'simliklar tarkibidagi vitaminlarning ahamiyati esa juda katta hisoblanadi. Ular tanada muntazam davom etadigan moddalar almashinuvi, hujayra, to'qimalarning o'sishi va qayta tiklanishi hamda kasalliklarga qarshi kurashishda faol ishtirok etadi. Oziq-ovqatda vitaminlar yetishmaganda kishining mehnat qobiliyati pasayadi, organizmning kasalliklarga hamda tashqi muhitning noqulay ta'siriga chidami kamayadi[5].

TAJRIBA QISM

Tukli erva o'simligi ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini YuSSX usulida aniqlash.

Tadqiqot Andijon davlat universiteti huzuridagi "Tovarlar kimyosi va xalq tabobati ilmiy-tadqiqotlar markazi" da olib borildi.

Vitaminlar insonning yashashi uchun oz miqdorda zarur bo'lgan organik birikmalardir. barcha vitaminlarning ko'p qismini ovqatdan olish mumkin. Chunki inson tanasi yetarli miqdorda vitaminlar ishlab chiqara olmaydi.

Vitaminlar yog'da eriydigan (A, D, E, K) va suvda eriydigan (B, C) ga bo'linadi. Biz

tadqiqotlarimizda suvda eruvchan vitaminlarni miqdorlarini o'rganishni maqsad qilib olganmiz. Buning uchun biz dastlab standart eritmalar va na'muna ekstraktini tayyorlashdan boshladik.

Foydalanilgan reaktiv va jihozlar. Vitamin B12 "Rhydburg Pharmaceuticals" (Germaniya), C vitamin "Carl Roth GmbH" (Germaniya), B9 "DSM Nutritional Products GmbH" dan (Germaniya), B1, B2, B3, B6, PP vitaminlar "BLDPharm" (Xitoy) olingan. HPLC darajadagi tozalikda suv, asetnitril, kimyoviy toza markadagi sirka kislota va natriy gidroksidi reaktivlaridan foydalanildi.

Tukli erva o'simligi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini Yaponiyaning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografida amalga oshirildi [6].

Standart eritmalarini tayyorlash. C (CAS 50-81-7), B1 (CAS 59-43-8), B6 (CAS 58-56-0), B3 (CAS 59-67-6), B12 (CAS 68-19-9) va PP (CAS 98-92-0) vitaminlarning eritmaları (100 mg/l) har bir vitaminning 5 mg dan miqdori 50 ml 0,1 N li HCl eritmasida eritib tayyorlanadi. B2 (CAS 83-88-5) va B9 (CAS 59-30-3) vitaminlarining standart eritmaları ushbu vitaminlarning 5 mg ni 50 ml 0,025% natriy gidroksid eritmasida eritib tayyorlandi. So'ngra dastlabki B1, B6, B3, B12, PP vitaminlardan 200 mkl dan olib aralashtirildi va har bir vitaminning konsentratsiyasi 14.286 mg/l dan bo'lgan eritma tayyorlandi. Shu tariqa 7.143, 3.571, 1.786 mg/l dan standart eritmalar tayyorlandi. Vitamin C ning ham 286, 143, 71.5, 57.2 mg/l konsentratsiyali standart eritmaları tayyorlandi. Kalibrlovchi grafik tuzish uchun 0 mg/l konsentratsiya uchun toza suv ishlatildi.

Namuna ekstraktini tayyorlash. Suvda eruvchan vitaminlarni ekstraksiya qilish uchun tekshiriladigan namunadan 1 gr o'lchab

olinib, 50 ml hajmli konussimon kolbaga solindi va 25 ml 0,1 N li HCl eritmasi qo‘shildi. Aralashma GT SONIC-D3 (Xitoy) markali ultratovushli vannada 60 oC haroratda 20 daqiqa davomida ekstraksiya qilindi. So‘ngra aralashma sovilib, filtrlandi hamda o‘lchov kolbasida suv bilan 25 ml ga yetkazildi. Ekstraktdan 1,5 ml miqdori 0,22 mkm li shpritsli filtrda filtrlanib vialaga solindi hamda analiz uchun foydalanildi.

Xromatografik sharoitlar.

Vitaminlarni aniqlash. Standart eritmalar va namuna ekstrakti LC-40D nasosi, SIL-40 avtosampleri, SPD-M40 foto-diod matritsali detektoridan (PDA) iborat LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografi va

LabSolutions ver. 6.92 dasturiy ta‘minoti yordamida tahlil qilindi. Shim pack GIST C18 (150 × 4,6 mm; 5 mkm, Shimadzu, Yaponiya) teskari fazali kolonkasi hamda asetoni-tril (A) va sirka kislotaning suvdagi 0,25 % li eritmasi (B) dan tashkil topgan gradientli harakatchan faza (1-jadval) qo‘llanildi. In‘ektsiya hajmi 10 mkl, oqim tezligi 0,6 ml/min va kolonka termostati harorati 40 °C etib belgilandi. Har bir vitaminning analitik signali (cho‘qqi maydoni) uchta to‘lqin uzunliklari 265, 291, 550 nm da qayd etildi (1-3 rasmlar). Vitamin C ni aniqlash uchun 15 daqiqali gradiyent ishlatildi (2-jadval) va analitik signal 265 nm to‘lqin uzunlikda o‘lchandi.

1-jadval.


Vitaminlarni aniqlashda harakatchan faza gradiyent dasturi.

Vaqt, daqiqa	Atsetonitril (A), %	0,25 % li sirka kislotasi (B), %
0	0	100
3	0	100
14	20	80
17	50	50
18	0	100
25	Tugatish	


2-jadval.

Vitamin C miqdorini aniqlashda harakatchan faza gradiyent dasturi.

Vaqt, daqiqa	Atsetonitril (A), %	0,5 % li sirka kislotasi (B), %
0	0	100
2	0	100
6	50	50
6,01	0	100
15	Tugatish	



1-rasm. Vitaminlar standart eritmasining xromatogrammasi.




2-rasm. Vitamin C standart eritmasining xromatogrammasi.


**OLINGAN NATIJALAR VA
ULARNING MUHOKAMASI**

Tukli erva ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash. Tukli erva ekstrakti xromatogrammasi (3-4 rasmlar) olindi

hamda natijalar asosida 100 g namuna tarkibidagi vitaminlar miqdorlari quyidagi formula bilan hisoblanib 3-jadvalda keltirildi. 3y



3-rasm. Tukli erva ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash xromatogrammasi.



4-rasm. Tukli erva ekstrakti tarkibidagi vitamin C ni aniqlash xromatogrammasi.

3-jadval

Tukli erva ekstraktidagi vitaminlarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Vitamin	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Vitamin B ₁	2,754	0,679	1,698
Vitamin B ₃	5,691	3,208	8,020
Vitamin PP	7,522	0,476	1,190
Vitamin B ₉	17,03	0,55	1,375
Vitamin B ₂	18,832	1,004	2,510
Vitamin B ₆	6,273	0,987	2,468
Vitamin B ₁₂	Aniqlanmadi	0	0,000
Vitamin C	4,233	0,139	0,348

Xulosa; Tukli erva ekstraktini (YuSSX) usulida aniqlanib olingan natijalar tahlil qilinganda vitaminlar miqdorlari (100g/mg) quyidagi tartibda ortib borishini ko‘rishimiz mumkin: vitamin C<PP<B₉<B₁<B₆<B₂<B₃.

Vitamin B₃ - Niatsin hayotiy oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar almashinuvida, purin

almashinuvida, to‘qimalarning nafas olishida va glikogenning parchalanishida ishtirok etadi. Qonda aterogen (xavfli) lipidlar miqdorini kamaytiradi, kichik qon tomirlarini kengaytiradi va mikrosirkulyatsiyani yaxshilaydi. Vitamin PP yetishmovchiligiichki a‘zolari normal faoliyatiga ta’sir etadi. Chunki bu vitamin juda ko‘plab jarayonlarda ishtirok etadi. Umuman olganda tukli erva ning ko‘plab

foydali xususiyatlari jumladan; immun tizimini yaxshilashda, anemiyada, zararli xolesterin va toksinlardan tozalashda, asosan; buyrakdagi kasalliklarni davolashda ishlatilishini inobatga olgan holda dorivor choylar, eritmalar,

damlamalar tayyorlash va tabobatda foydalanish mumkin. undan tashqari o'simlikni to'g'ridan-to'g'ri yoki qaynatib iste'mol qilish mumkin. Demak, vitaminlar tirik organizmlarning hayot faoliyati uchun zarur biologik moddalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son qarori.
2. <https://www.agro.uz/dorivor-osimliklar/>
3. Axmedov U., Ergaev A., Ablazov A., Yulchiev M. dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2009 105 b.
4. Zapesochnaya GG, Pervykh LN, Kurkin VA. A study of the herb *Aerva lanata* III. Alkaloids. *Chem Nat Compd.* 1991;27:336–40.
5. Muxiddinova S.M., Aminjonova Ch.A. Vitamin saqlaydigan dorivor o'simliklarning inson hayotidagi tutgan o'rni. *Uzbek Scholar Journal* Volume- 11, Dec., 2022 www.uzbekscholar.com 44-49
6. Asqarov, I. R., Abdullayev, S. S. o'g'li, Mamatqulova, S. A., Abdulloyev, O. S., & Abdulloyev, S. X. (2024). Suvda eruvchan vitaminlar miqdorini YUSSX usulida aniqlash metodikasini ishlab chiqish (chilonjiyda misolida).
7. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4679>
(<https://wach.ru/uz/ovoshevodstvo/svoistva-travy-pol-pola-lechebnye-svoistva-travy-pol-pala.html>)